



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> April, 2025

## **МАHZUN BO'LMA! НЕ ПЕЧАЛЬСЯ! DON'T BE SAD!**

Muallif: Voxobov To'rabet Toshmurod o'g'li

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada zamonomizdagi ayrim musulmon kishilarning mahzun bo'lishi va uning bir qancha asosiy sabablari yoritib o'tilgan, shuningdek, bu mahzunlikka qarshi choralar dalillar asosida ko'rsatilgan. Shu kichik ishimiz sabab bo'lib mahzun qalblarga osoyishtalik yetsa, biz bundan faqat va faqat xursandmiz. Alloh taolo O'zi xayrli va manfaatli qilsin.

**Kalit so'zlar:** Mahzun bo'lma, ibodat, shariat, qalb, zikr, Qur'on qiroati, ajr va mukofotlar, ofiyat, sabr qilmoq.

### **Аннотация:**

В данной статье освещается проблема печали некоторых современных мусульман и рассматриваются ее основные причины, а также предлагаются меры противодействия этой печали, основанные на доказательствах. Мы будем искренне рады, если благодаря этой небольшой работе скорбящие сердца обретут покой. Да сделает Всевышний Аллах этот труд благим и полезным.

**Ключевые слова:** Не печалься, поклонение, шариат, сердце, поминание, чтение Корана, награда и воздаяние, благополучие, терпение.

### **Abstract:**

This article highlights the sadness of some Muslims in our time and several main reasons for it, as well as measures against this sadness based on evidence. If this small deed brings peace to sorrowful hearts, we are only and only happy about it. May Allah make it beneficial and advantageous.

**Keywords:** Don't be sad, worship, Sharia, heart, remembrance, Quran recitation, rewards and recompense, well-being, being patient.



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> April, 2025

***Bismillahir rohmanir rohiym!***

Avvalambor Alloh taologa hamd-u sanolar, Payğambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga durudu salovatlar bôlsin. Hayot yo'llarida kattami kichikmi to'siqlarga, qiyinchiliklarga duch kelmagan, ular orqali özgarmagan insonlar bo'lmasa kerak nazarimda. Har bir kunimiz bizga berilgan katta imkoniyatligini chin dildan his qilmog'imiz, sarflayotgan har bir soniyamizni xayrli ishlarga, savob amallarga bag'ishlamog'imiz kerak bo'ladi. Ba'zida charchab ham ketasiz o'z qobig'ingizga o'ralib, hayotdan nolib, to'g'rimi? Nega faqat men? Nega meni ishlarim shunday yurishmaydi? Qaysi qilgan gunohim uchun bunday ahvoldaman? Kabi ko'plab "nega"lar kurtak ortaveradi. Endi o'zimizga o'zimiz savol berib ko'raylik: Aslida biz nega dunyoga keldik? Insonni yashashdan asl maqsadi nima? Bu kabi savollar insonni tafakkur qilishga undaydi. Javobga o'tadigan bo'lsak juda oddiy: Biz Allohga ibodat qilish uchun kelganmiz bu foniy dunyoga. "Ibodat" deganda faqatgina namoz, ro'za, haj kabi amallar tushunilmaydi. Bu juda keng tushuncha. Keling, avval ibodat so'zining lug'aviy ma'nosiga diqqat qilamiz. Ibodat arabchadan olingan bo'lib—"sig'inmoq", "bosh egmoq" kabi ma'nolarni anglatadi.[3] Qur'oni Karimning eng buyuk surasi bo'lmish Fotiha (ochuvchi, Qur'oni Karim shu suradan boshlanadi)ning 5-oyatida shunday deyiladi:

***"Faqt Sengagina ibodat qilamiz va faqt Sendangina yordam so'raymiz".***

Bizda "ibodat" deganda, faqat namoz o'qish, ro'za tutish, zikr, Qur'on qiroati kabi narsalar tushuniladigan bo'lib qolgan. To'g'ri, bular ulkan ibodatlar, lekin, aslida, nimaiki ish qilmaylik, Allohga U ko'rib turgandek, O'zi buyurgandek amal qilish ibodatdir, albatta, bu amallar shariatda belgilab qo'yilgan. Demak, inson o'z hayotida, qilayotgan har bir ishida shariat talabida berilgandek ish tutsa, ibodatda yurgan bo'ladi. Alloh halol rizq top, deb buyurganmi, demak, halol rizq topish harakatida yurganlar ibodatda bo'ladilar. Albatta, halol rizq topish ibodat ekan, deb boshqa narsalarni tark qilinmaydi. Masalan, namoz va ro'zani tark qilishga hech kimning haqi yo'q. Rizqimiz allaqachon qudratli Zot tarafidan yozib qo'yilgan. Yana o'z so'zimizga qaytaylik: ***"Iyyaka na'budu"*** ***"faqt Sening aytganining qilamiz"*** ma'nosini anglatadi. Bu esa banda tarafidan Allohga berilgan ulkan va'dadir. Alloh taolo barchamizni ushbu va'daning ustidan chiqadiganlardan qilsin. ***"Iyyaka nasta'in"*** ham xuddi shunday, ***"faqt Allohdangina yordam so'rash"***



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> April, 2025

ma'nosini anglatadi. Odatda biror ishga qattiq urinib, kuchi yetmay qolgan taqdirda yordam so'rashga arablar "isti'ona" so'zining turli ko'rinishlarini ishlatajilar. Ushbu oyati karimada, "Iyyaka nasta'in", deyilishi ham, o'zimiz imkonni boricha harakat qilib, imkonini topa olmay qolganimizda, faqat Sendangina yordam so'raymiz, degan ma'noni bildiradi. Harakat qilmay dangasa bo'lib yotib olgan holda, birovdan yordam so'ralmaydi. Mulohaza qilsangiz, ikkala ishda ham: ibodat qilishda ham va yordam so'rashda ham birlik emas, ko'plik lafzi ishlataliyapti, bu esa Islomda jamoatchilik, ko'pchilik bilan bo'lish ruhini aks ettiradi.[4]

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Allohgagina ibodat qilinadi va Undangina yordam so'raladi. Lekin taassufki, bizni ko'pchiligidan hozirda bu narsaga rioya qilmaymiz, nega deganda yordamni ham boshqa birovlardan, ya'ni Allohning bandalaridan -- yaratilganlardan kutib qoldik, aslida Yaratgandan so'rash va kutish o'rniga. Yana ham achinarlisi shundaki, ishonilgan odamlardan tayinli natija chiqmasa, g'am-qayg'uga botib mahzunlik eshigiga kirib berkinib olamiz. Ishlarimiz yurishmasa, yaqin odamlarimiz aldab ishonchimizni poymol qilsa, hayotda nimaiki bizning nazarimizda yomon ish sodir bo'lsa mahzunlikka tushish, o'zini yo'qotib qo'yish ko'zga tashlanmoqda. Yechim nimada? Albatta, musulmon odam taqdirning yaxshisi ham, tomoni ham Allohdan ekaniga iymon keltiradi va bu iymon shartlaridan biridir. Nimaiki bo'lsa barchasi sinov. Quvonchli kunlarda ham, musibatli onlarda ham Allohn zikr qilmoqlik, Unga qattiq ishonmoqlik, butun hojatini Undangina so'ramoqlik, butun ishlarini Alloha topshirmoqlik inson qalbidagi ortiqcha yuklardan qutulishga yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, mahzunlikni yo'qotadi, qalblarni nurafshon qiladi. To'g'rida, rizq oldindan yozib qo'yilgan, qadar bu haqdir. Inson voy desa ham, dod desa ham bo'lishi kerak bo'lган narsa bo'ladi, maxluqning qo'lidan nima kelar edi, axir Xoliq iroda etgan bo'lsa. Musibat payti haddidan oshish gunoh olib keladi, aksincha sabr qilmoq, har ishda Allohning hikmati borligini tafakkur qilmoq, sabri uchun O'zining huzuridan savob, xayriyatlar umid qilmoq insonga huzur baxsh etadi. Biz sababini qoim qilamiz, natijasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar aslo g'am yemaymiz. Chunki ishlarimiz Alloh iznida. Shuningdek, Alloh roziligi uchun qilinayotgan har bir ishda shahd va matonat bilan oxirigacha borish kerak. Bu yo'ldagi to'siqlardan, g'iybatchining g'iybatidan qo'rqib ortga qaytilmaydi. Bir olim kishi aytganidek:



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> April, 2025

---

***Yozilgan bo'lsa, nimadan qochay?***

***Yozilmagan bo'lsa, nimadan qo'rqay?***

Yana biri:

***Yo'lning azobidan chekmagil alam,***

***Bismillah degin-u, qo'yaver qadam.***

Agar inson qilayotgan barcha ishlarini shariat qoidalari bo'yicha qiladigan bo'lsa, u ibodatda bo'ladi, ko'plab xayrlarga erishadi. Chunki bu Allohga itoat qilish hisoblanadi. Quyida "Shariat" so'ziga izoh bilan tanishamiz:

**Shariat** (arab. — to‘g‘ri yo‘l; islomda qonunchilik ma’nosida ishlataladi) — Islom huquq tizimi. Sharhida sof huquqiy masalalardan tashqari axloqiy me’yorlar va amaliy diniy talablar hamda qonun turlari berilgan. Musulmon kishi uchun dunyoga kelishidan to o‘limigacha yurish-turishini belgilovchi qoidalar to‘plami sifatida qaralgan. Ilk islomda jamiyatni huquqiy boshqarish Qur’on asosida olib borilgan. Keyinroq musulmonlarning barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va diniy faoliyatini qamrab oluvchi qonunlar majmuasiga ehtiyoj tug‘ilgan. Islom huquqshunoslari bir necha asr mobaynida Shariat me’yorlarini ishlab chiqqanlar. Sharhiga Qur’on, sunnat, ijmo va qiyos asos qilib olingan. Shariat huquqiy tizim sifatida 11-12-asrlarda tugal shakllangan. Bunda yozma va og‘zaki diniy, madaniy, axloqiy, huquqiy, mahalliy urf-odat va an’analarning ta’siri bo‘lgan.[5]

Barcha ishlarimizda "Alloh ko'rib turibdi" degan aqida bilan harakat qiladigan bo'lsak, in sha Allohi ta'ala hayotdagi maqsadimizga erishgan bo'lamiz. Har bir ishimizni o'ylab bajarmog'imiz, har qadamimizni o'ylab bosmog'imiz shart bo'ladi. Musulmon odam sira mahzun bo'lmasligi kerak. Nega deganda musulmon oilada dunyoga kelishni o'zi bir katta baxt. Tinch diyorda yashayapmiz. Bu ham ne'mat emasmi? Axir ayrim davlatlarda yashayotgan qanchadan qancha insonlar: go'daklar, bolalar, erkak-u ayollar urishdan, notinchlikdan aziyat chekishmoqda. Hatto uyimizga ertaga snaryad kelib tushmasmikan deb tahlikada tong ottirayotganlar qancha... Yeyishga 1 kunlik oziq ovqati bor bo'lisligli ham ne'mat... Axir dunyoda haftalab och qolayotgan, hatto ochlikdan o'layotgan insonlar bor... Tan-u jonimiz sog' bo'lishi ham katta ne'mat. Axir qanchadan qancha odamlar shunchaki sog'ayib ketishi uchun borini bergen bo'lardilar, lekin ular shunday uzoq dardga chalinishga mahkum bo'lgan... Hatto pul ham ularni



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> April, 2025

qutqarolmaydi... Demak, gap pulning ko'pligida ham emas. Birodar, yurib turganizingizni o'zi ham bir ne'mat. Axir qanchadan qancha odamlar nogironlar aravachasida o'tiribdi. Ulardan so'rab ko'ringchi, nima derkinlar maqsadi haqida, orzusi haqida? Balki aytolmasa-da, Yurib ketsam bo'ldi deb ich ichidan xohlab turganlarini his qilishingiz qiyin emas. Ularning ichida yana shunday xillari ham borki, hatto o'zining ehtiyojlarini ham bajarolmaydi (hojatini ham o'zi chiqarolmaydi, tahorat ham ololmaydi, kiyimlarini ham o'zi kiyolmaydi, mutloq shol bo'lib qolganlarini ko'rsangiz edi) Jimgina kuzatishadi... Yordamga muhtoj bo'lib o'tirishadi, mo'lтирab. Ular bilan gaplashib ko'ringda, aksariyatini fikrlari teran, maqsadlari, rejalarini aniq, Allohga taqvosi kuchli, ibodatlarga qoim, zikr, istig'for, shukrlarni ko'p aytguvchilar bo'ladi. Yana ayrimlar borki,.ham kar, ham soqov, endi bunga nima deysiz??? Ustiga ustak ular yurolmasachi??? Birodar, shukr qiling, biz ko'pchiligidiz o'zimiz bemalol tahorat ololamiz, yurolamiz, gapira olamiz eshita olamiz... Allohning ne'matlarini sanasangiz adog'i yo'q... Sanagan sari iymoningiz komillashib, shukronangiz oshib, tafakkuringiz teranlashib, hayotga bo'lgan qarashingiz o'zgarib boraveradi. Ha azizlar, bizni hecham mahzun bo'lishga haqimiz yo'q. Bu dunyoda hammasi sinov. Kimdir boy qilib sinaladi, kimdir kambag'al qilib. Kimdir salomatligi bilan sinalsa, yana kimdir bemorlik, dard ila... Shu o'rinda Abdulloh domlaning mashhur so'zlarini keltirib o'tishga ijozat bergaysiz:

Hech qachon mahzun bo'lma!

Chunki qayg'u seni o'tmishingdan bezovta qilib, kelajakdan xavotirga soladi, oqibatda bugungi kuningni yo'qtasan

Hech qachon mahzun bo'lma!

Chunki qalb qayg'u bilan ovora bo'lib, ruhing so'nib, yuzingning nuri ketadi. Orzu umidlaring yo'q bo'ladi

Ey mo'min banda, mahzun bo'lma!

Chunki qayg'u dushmaningni xursand qilib , do'stingni mahzun qiladi. Qayg'u sababli haqiqatlarni ko'rolmay qolasan...

Mahzun bo'lma!

Chunki qayg'u Qazoi-Qadarga norozilik, ne'matga esa nonko'rlik bo'ladi ...

Mahzun bo'lma!



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> April, 2025

Chunki qayg‘u, g‘am yo‘qolgan narsani qaytarmaydi. O‘liklarni tiriltirib, qadarni qaytarmaydi, foyda keltirmaydi...

Mahzun bo‘lma!

Chunki qayg‘u shaytondan. Qayg‘u - faqirlik va umidsizlikdir.

Mahzun bo‘lma!

Agar sen faqir bo‘lsang, umri qarzga botib ketgan kishilar bor... Mingani uloving yo‘q bo‘lsa, oyog‘i shol bo‘lgan odamlar bor.

Mahzun bo‘lma!

Agar bir farzandingdan ayrilgan bo‘lsang, shunday insonlar borki, butun oilasidan mahrum bo‘lgan...

Mahzun bo‘lma!

Agar gunohkor bo‘lsang tavba qil, yomon ish qilgan bo‘lsang istig‘for ayt... Xato qilgan bo‘lsang isloq qil. Allohning rahmati keng, tavba eshiklari ochiqdir...

Mahzun bo‘lma!

Agar g‘amga botsang, asablaring taranglashib, vujudingni qiynab, tunlarni bedor qilasan.

Mahzun bo‘lma!

Chunki Qazoi- Qadar qalami ishini bitirgan, varaqlar qurigan, kitob yopilgan, bundan oshiqcha ham, kam ham bo‘lmaydi, mahzun bo‘lma!

Mahzun bo‘lma!

Qo‘lingdan ketgan narsaga g‘am chekma. Biri ketgan bo‘lsa, hali qo‘lingda sen anglab, anglamagan Allohning juda ko‘p ne’matlari bor.

Mahzun bo‘lma!

Hasadgo‘y, botil ahllarining tanqidlariga parvo qilma, chunki ularning so‘zlariga sabr qilishda senga ajr-mukofot bor... Seni tanqid qilishlari seni qadrinги belgilaydi, axir odamlar o‘likka so‘z otmaydilarku.

Mahzun bo‘lma !

Kasallik albatta ketadi, musibatlar albatta ko‘tariladi, gunohlar kechiriladi, qarzlar uziladi, mahbuslar ozod bo‘ladi, g‘oyiblar (ketganlar) albatta qaytib keladi, osiyalar tavba qiladi, albatta yomonlar jazosini oladi, mahzun bo‘lma ...

Mahzun bo‘lma!



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> April, 2025

Modomiki, odamlarga yaxshiliklar qilar ekansan, albatta, mushkulalaring hal bo‘ladi, chunki boshqalarga yaxshilik qilishlik insonni o‘zini mushkullarini hal bo‘lishiga sabab bo‘ladi...

Mahzun bo‘lma!

Chunki senga qilgan bitta hasanoting uchun o‘ndan tortib yetti yuzgacha ajr beriladi, balki undan ham ko‘proq, in shaa Alloh. Lekin qilgan gunohingga - bittagina jazo beriladi..

Mahzun bo‘lma!

Senda eng katta ne’mat bor, chunki sen Tavhid kalimasini aytganlardansan ... Ahli qiblasan, musulmonsan, qo‘lingni duoga ko‘targan kishilardansan, sen mahzun bo‘lma.

Mahzun bo‘lma!

Chunki sen hayotning yengil - og‘ir, issiq, sovuq, faqir va boy holatingda xam foyda ustidasan... Rosululloh sollallohu alayhi va sallam aytganlaridek:

- Musulmon odam yaxshilik kelsa shukr qilib savob oladi, mashaqqatli kun kelsa sabr qiladi, yana savob oladi ...

Mahzun bo‘lma!

Axir senda Qur’on bor! Zikr, duo bor! Axir senda Namoz, amri - ma’ruf, sadaqa va boshqa savobli amallar bor. Kim xohlardi dunyoda "Iymoningni berasan, evaziga dunyodagi hamma narsani beraman" desa, qaysi mo‘min almashtirardi..?

Odamlarga zulm qilayotgan, haqlarini yeyayotgan, tuhmat qilayotgan, bo‘xton qilayotganlar ham bir kuni o‘ladi! Zulm ko‘rgan, sabr qilgan, savob umid qilgan kishilar ham o‘ladi!

Lekin Allohnинг huzurida kim yutuqda bo‘ladi?

Dunyo hayoti vaqtincha, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam aytganlaridek :

- Dunyo bir soatlik yo‘ldir... Kim o‘lmaydi?

Mahzun bo‘lma!

Axir qora bulutlarni tarqaganini, qorong'u tunni yorishganini, shamollarni to‘xtaganini ko‘rmaganmisan.. InshaaAlloh mashaqqatlarining rohatga, hayoting yorug‘likka, kelajaging ne’matga to‘lib boradi, InshaaAlloh ...

Mahzun bo‘lma!



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> April, 2025

Agar oldingda chora qolmasa, yo'llar berkilib, umidsizlik bostirib kelsa yo ALLOH degin! [1]

Biz muslimonlar axir qadarning yaxshisi ham yomoni ham Allohdan ekanligiga iymon keltirganmiz. Mahzun bo'lib uf tortishliklar bizni qadarga noroziligidimizni anglatib, Allohdan uzoqlashishimizga sabab bo'ladi. Bir muolajani keltirib o'taman: Qalblar Allohning zikri ila orom olgusidir.

Ahzbob surasining 35-oyatida: “Allohni ko'p zikr qiluvchi erkaklar va (Allohni ko'p) zikr qiluvchi ayollar o'shalarga Alloh mag'firatni va ulug' ajrini tayyorlab qo'ygandur”- deb bashorat beradi. Banda Robbisini zikr qilishi til, qalb va tana a'zolari ila bo'ladi. Tilning zikri Uni poklash, ulug'lash va hamdga dalolat qiladigan lafzlarni nutq qilish bilan hosil bo'ladi.

Ahzbob surasi 71-oyatida: “**Kim Allohga va Uning Rasuliga itoat qilsa, batahqiq, buyuk zafarga erishibdir**” – deb bandalar Meni va Rasulimni itoat ila eslasalar ularni yordamim va jannatim bilan eslayman dedi.

Hadisi qudsiyda Abu Hurayra roziyallohu anhudan u zot esa Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan: “*Alloh aytadi: agar bandam meni eslasa men ham uni eslayman, agar meni bir jamoatda eslasa men uni uning jamoatidan yaxshiroq, sharafliroq bo'lgan jamoatda eslayman deydi*” – deb rivoyat qiladilar. Ba'zi olimlar ushbu hadis sharhida aytishadiki, Allohning yaxshiroq bo'lgan jamoatda eslashi bu farishtalar va payg'ambarlarning jamoatidir.

Allohning zikri unga hamd, tasbehu – tahlil aytish, Uni buyukligi va qudratini tafakkur qilish yoki banda qalbini Alloh bilan mashg'ul qilib, Undan boshqasidan forig' qilish bilan bo'ladi. Bu esa eng ulug' ibodat va qurbatdir.

Alloh taolo Ahzbob surasining 41-42-oyatida: “*Ey, iymon keltirganlar! Allohni ko'p zikr qilinglar. Va ertayu kech Uni poklab yod etinglar*” – dedi. Ya'ni kecha-yu kunduz, quruqligu dengizda, sog'ligu – betobligida, maxfiy va jahriy zikr qilishga buyurdi.

Imom Ahmad musnadlarida: “*Arobiy Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam oldilariga kelib: "Eng afzal kishi kim?" – deya so'radi. U zot sollallohu alayhi va sallam: "Umri uzun bo'lib, amali chiroylit bo'lgan insonga Jannat bo'lsin !!!" – deya javob berdilar. Arobiy: "Amallarning afzali qaysi?" – deb so'radi.*



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> April, 2025

***Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: “Dunyoni tark qilganingda tiling Allohnizikri ila nam bo’lishligidir”- dedilar”.***

Oyat va hadislardan kelib chiqib shu narsani xulosa qilsak bo’ladiki, albatta toki o’lim g’arg’arasiga qadar Allohnizikrida bardavom bo’lishligimiz va biron-bir lahzani Allohnizikrisiz o’tkazmasligimiz lozim bo’ladi. Allohnizikridan g’aflatda qolishlik esa ko’p yaxshiliklardan buyuk ne’mat-u savoblardan mahrum qiladi.

Toha surasi 124 va 125-oyatlarida: ***“Kim meni zikrimdan yuz o’girsa, albatta, unga torchilik hayoti bo’lur va qiyomat kuni ko’r holida tiriltirurmiz”*** – dedi.

Banda Allohnizikridan yuz o’girishida barcha yaxshiliklar, ulug’ savoblardan bebahra qolishini bilamiz. Bu esa katta baxtsizlik va ulkan yo’qotishdir! [6]

Agar siz atrofdagi ishlardan, hayotingizdan nolib, siqilayotgan va shularni deb mahzun bo’layotgan bo’lsangiz, o’zingizni bir tekshirib ko’ring, balki Alloh bilan aloqangiz yaxshi emasdir... Allohgaga qayting... O’zingizni Allohgaga topshiring. Aytingki, hammasi oz qoldi. Bu o’tkinchi dunyoda kimlar o’tmadi deysiz? Bu dunyoda nima bo’lsa sinov azizlar. Ularni mardonavor qarshi olishimiz kerak azizlar. Zora ular sababli Alloh taolo bizni darajamizni oshirsa. Ibodatda bardavom bo’lish kerak. Eng go’zal maqsad ham Allohnining roziligidiga yetishishdir, U Zotning roziligining nishonasi u dunyoda JANNAT bo’lsa, bu dunyoda esa qalban xotirjamlik, ofiyat va barcha ishlaringizning barakasidir.

Xotima o’rnida aytamizki, Siz muhtaram o’quvchilardan ushbu bitiklardan biror foydali va yaxshi narsa topsangiz, Alloh taoloning fazlidan deb, barcha xato va nuqsonlarni kamina xodimingizdan deb bilishingizni so’raymiz.[2] Alloh subhanahu va taolo qalbingizda o’ylagan ezgu niyatlariningizni afzallarini ziyodasi bilan bersin, azizlar. Iymonda yanada mustahkam bo’lib, ibodatlarda bardavom bo’lmoqlikni, O’zining roziligidiga yetishmoqlikni barchamizga nasib etsin. Amin. Assalomu alaykum va rohmatullohi va barokatuh!

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI::**

1. Abdulloh domla ma’ruzalari
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari "Baxtiyor oila" | Hiloc nashr Toshkent 2018. 11-bet
3. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/ibodat>



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> April, 2025

- 
- 4. <https://sammuslim.uz/oz/islam/ayahs/fotiha-surasi-tafsiri>
  - 5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Shariat>
  - 6. <https://oliymahad.uz/38635>